

8. Tashkent State University of Economics. (2021). Economic impact of tourism in Uzbekistan: Trends and forecasts. Retrieved from <https://www.tsue.uz/en/research/publications>
9. Uzbekturizm. (2022). Tourism development in Uzbekistan: Strategies and challenges. Retrieved from <https://uzbekturizm.uz/en/publications>
10. World Tourism Organization. (2021). Tourism and COVID-19: Impact and recovery. <https://www.unwto.org/covid-19-and-tourism>

TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI

Isomidinov inomjon qurbonali o'g'li

TDIU "Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrası tayanch doktoranti,
O'zbekiston 100066, Toshkent shahar,
Islom Karimov ko'chasi, 49

E-mail: i.isomidinov@tseu.uz

Annotatsiya: Turizm madaniyatlararo almashinuv imkoniyatini beradi. Dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilar mahalliy aholi bilan muloqot qilish, ularning urf-odatları o'rganish va ularning turmush tarzi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu almashinuv nafaqat istiqbollarni kengaytiradi, balki turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro tushunish va hurmatni kuchaytiradi. Turizm tashkiliy-iqtisodiy mexanizm iqtisodiy jarayonlarning normal borishiga, iqtisodiy tizim va uning ob'ektlari barqaror faoliyatda bo'lishini qo'llab-quvvatlashga, turizm faoliyatini yanada rivojlanishiga, uzilishlarning, qonunlar, normativ ko'rsatmalar, shartnomalar buzilishlarining oldini olishga ko'maklashadigan sharoitlar yaratish choralari va vositalarining yig'indisi hisoblandi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, turizm, xizmatlar sohasi, ekologiya, infratuzilma.

Kirish: O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida turizm sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida "Ichki turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali 2026-yilda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish"¹²³ maqsadi doirasida vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi "ichki turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmunini hamda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini "mahalla yettiligi" boshqaruvi vakolat va majburiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, axborotning nosimmetrik ta'sir oqibatlari natijasida sayohatchilarning mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi jarayonlaridagi vujudga keluvchi noqulay holatlarni oldini olish va tartibga solish orqali ichki turizmning rivojlanishini rag'batlantirish, O'zbekistonda ichki turizmning o'sishiga va daromadligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida uzoq muddatli istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ahamiyati dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism: Madaniyat va turizm sohalarining mavjud muammolari va ularning yechimlari masalalari bugungi kunning dolzarb masalalari bo'lib turibdi. Muammolarning yechishda rejali ishlarni amalga oshirmoqda. Bunda vakolatli organ "start-up" loyihalar, fundamental loyiha va amaliy loyihalar tanlovini o'tkazmoqda. Maskur loyihalarni

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 2-ilova. 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi. - <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

moliyalashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, tematik mavzular bo'yicha 2018-2022 yillarda 50 loyihaga 34,8 milliard so'm ajratilgan. Shu yillar kesimida moliyalashtirilgan loyihalar soni 29 bo'lib umumiy miqdorda 18,0 milyard so'mni tashkil qildi.

"Start-up" loyihalar tanloviga esa birgina 2020 yil uchun 1,5 milyard so'm ajratilgan bundan 7 ta loyiha g'olib bo'lgan va 0,7 milyard so'm moliyalashtirilgan. Bu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 0,8 milyard so'mni tashkil etgan. Zamon talabiga mos turizm xizmatlarini ishlab chiqishni ko'zlagan bu loyihalar g'oliblvr tomonidan amaliyotga tadbqiq qilinmoqda.

Albatta har bir sohada mavjud muammolarni bartaraf etishda faqat ilmiy tomondan yechim topgani kabi turizmni industriyasini rivojlantirishda ilmiy sohalariga etibor qaratish lozim.

Bunda ilmiy ishda xulosalar va takliflar berib o'tilgan:

- madaniyat va turizm sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan buyurtmalar portfelini shakllantirish.

- yosh olimlarning xorijiy ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlari bilan aloqa o'rnatishiga amaliy yordam berish.

- OTM va ITMlarni ilmiy, innovasion salohiyatini oshirish o'quv kurslari, seminarlar tashkil etish.

- olimlarning ilmiy-innovasion loyihalardagi ishtirokini oshirish

- ilmiy va innovasion loyihalarni ikki barobarga ko'paytirish .

- olimlarning ilmiy-innovasion loyihalardagi ishtirokini oshirish.

- xorijiy markazlar, yetuk mutaxassislarni jalb qilgan holda master klasslar tashkil etish.

- OTM va ITM larda tayanch doktorantura kvotalarini oshirish.

Ushbu yechimlarni amaliyotga tadbqiq etish rivojlanishga qadam tashlash degani. Respublikamizda turizm sohasi yo'nalishida 26,5% ilmiy darajaga ega mutaxassislar ishlab kelmoqda va sohalaridagi OTM va ITMlarning ilmiy loyihalar tanlovlarida ishtirok etish tajribasi yetarli emas. Vakolatli davlat organining bevosita kafedralar bilan loyihalar ustida ishlash markazini tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotni organishda jarayonida turizmni rivojlantirishda xalqaro va mahalliy olimlar o'zlarini bir qator asarlarida nazariy va amaliy tavsiyalari keltirib o'tgan. Ulardan Arjun Kumar Bhatia "Ichki turizmga odamlar xalqaro turizmga bo'lgani kabi, mamlakat chegaralaridan tashqarida sayohat qilishdan farqli o'laroq, o'z yashash joylaridan tashqarida mamlakatning boshqa hududlariga sayohat qilishadi"

Turizm sohasida faoliyat ko'rsatadigan amaliyotchi sifatida o'z maqolasida keng ta'rif berilgan.

Dr. Hayley Stainton o'z kitobida quyidagicha nazariy ta'rif berib o'tgan "Bu o'z mamlakatida sayohat faoliyatini amalga oshiradigan, bir kunlik yoki tunash uchun sayohat qiladigan har bir kishi" deb yozgan bo'lib, ta'rif ilmiy yondoshilgan bo'lib mahalliy turistning sayoxat davrini hisobga olib tuzilgan.

Turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarmoq shaklga ega. Bu mavzuda turli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, ushbu ob'ekt yaxlitligicha yetarli chuqur o'rganilmagan.

Ushbu mexanizm turizm tarmog'ining sub'ektlari o'rtasida, makro va mikroiqtisodiy komponentlarni qo'shgan holda iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. "Rivojlantirish" terminini kiritish ushbu mexanizmning nazariy hamda amaliy yo'nalganligini anglatadi, chunki ichki turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqa bir qator vazifalarni hal qilishga ham qaratilgan bo'lishi mumkin.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadlari turistik faoliyat muhitining tashqi va ichki omillarga bog'liq. Ichki turizmning tashqi muhit omillari zamonaviy, shiddat bilan o'zgarayotgan iqtisodiy muhitda o'zgarib turganligi sababli, bu tashkiliy-iqtisodiy mexanizm uni boshqa muayyan maqsadlardan ajratib turuvchi bir qator tizimli xususiyatlarga ega. U rivojlanishning

o'zgarib turuvchi talab va maqsadlari sharoitlarida o'zining asosiy funksiyalarini bajarish imkoniga ega bo'lishi, shuningdek, tashqi muhit o'zgarishlarga uchraganda o'z ish parametrlarini saqlab qolish zarur.

Tahlil va natijalar: Turizm o'zining ko'p qirrali turlari bilan barcha sohalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib kelayotgan sohalardan biridir. Ichki turizm iqtisodiyotning ko'pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi.

Jumladan mehmonxona va mehmon uylari, umumiy oqatlantirish korxonalari, transport xizmatlari, kamunal uy xo'jaliklari, yo'l qurilish, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo tarmoqlari va servis sohalaridir. Ichki turizmni rivojlantirish bir vaqtning o'zida o'ziga xos dam olish, ko'ngil ochar maskanlar industriyasini o'z ichiga oladi. Turizmda asosiy xizmatlar qo'shimcha xizmatlar mavjud bo'lib asosiy xizmatlarga:

- kutib olish xizmatlari;
- joylashtirish xizmatlari;
- ovqatlantirish xizmatlari;
- transport xizmatlari;
- ekskursiya xizmatlariga bo'linadi. Xar bir xizmat infrastrukturasini

mukammal shakllanganda turistlarda muammolar kuzatilmaydi. Yana qo'shimcha xizmatlar mavjud, ular ham jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Kutib olish xizmatlariga demak masofalardan turib ishlash tushiniladi. Turfirmadan ma'sul xodim turistni kutib olishga aeroportga borishi yo'l infratuzilmasini, aeroport infratuzilmasini va transport infratuzilmasini xalqaro va ichki standartlarga javob berishini talab qiladi.

Joylashtirish xizmatlarida mehmonxona va mehmon uylarini infratuzilmasi ham standartlarga to'g'ri kelishi, ular mamlakatning turist qabul qilishi salohiyatiga yetarli bo'lishi kerak.

Umumiy ovqatlantirish korxonalarining infratuzilmalari turizmga turistlar uchun xizmat ko'rsatish sifatleri ham mukammallik talab etadi.

Turistlarni tashishda transport xizmatlari infratuzilmasi ham turizmni rivojlanishiga uni barqaror borishda bevosita xizmat ko'rsatadi.

Turizm mamlakat iqtisodiyotida pul massasini aylanishini tezlashtirish bilan bozor iqtisodiyotini rivojlantirmoqda. Ichki turizmga madaniyat almashinuvi, aholining maqsadga qarab tashrif buyurgan manzil haqida ma'lumot olishi yoki biror bir mavzuda qo'shimcha bilimga ega bo'lishi kuzatiladi. Tashrif buyurgan ichki turistlar shu joyga mablag' sarflab aholini yashash tarzini yaxshilashga olib keladi. Tashrif buyurgan hududlarda infrastrukturalar shakllana boshlaydi. Eng muhimi aholining turizm savodxonligi oshadi.

Quyidagi besh jihat turizmni rivojlantirishda misol bo'la oladi:

qonun jihatidan ta'minlash (turistik faoliyatning normal borishiga ko'maklashadigan qonunlar ishlab chiqish);

infratuzilma jihatidan ta'minlash (tarixiy-madaniy turizmni tashkil etish uchun umumiy sharoitlarni yaratuvchi va ta'minlovchi moddiy-texnik elementlarning mavjud bo'lishi);

moliyaviy ta'minlash (investisiya manbalarini aniqlash va madaniy turizm sohasida qulay investisiya iqlimini yaratish);

axborot ta'minoti (madaniy turizmni tashkil etish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda turistlarni axborot bilan ta'minlash);

kadrlar bilan ta'minlash (sifatli turistik xizmatlar ko'rsatishga layoqatli bo'lgan malakali oliy, o'rta va quyi bo'g'in xodimlarini o'z vaqtida va doimiy tayyorlash hamda qayta tayyorlash).

Respublikamizda turizmning asosiy tarkibi va shakli bo'lgan ichki turizmdagi faoliyat kompleks rejalashtirilishi, yo'naltirilishi, muvofiqlashtirilishi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining elementlari qamrab olinishi zarur. Bu yo'nalishlarning har biri tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-xuquqiy mexanizmlariga qaraydigan bo'lsak, tashkiliy mexanizmida ichki turizmda tashrif buyuradigan sayyohga ko'rsatiladigan xizmatlarni sifat darajasi shu mahalla yoki hudud rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan turistlar tashrif buyuradigan hududlarda aholini turizm savodxonligi oshirish bo'yicha qo'shimcha o'quv markazlarini ochish tavsifiya etiladi.

Aholini turizm savodxonligi oshirish. Bu masalada yuqorida aytib o'tganimizdek mahalla markazlarida (MFY), qoshida o'quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Markaz qoshida turizm nazariyasi, xizmat ko'rsatishda sanitariya epidemalogiya talablari, og'zaki nutq madaniyatini o'stirish, turizmda tashkiliy masalalar doirasida bilim va ko'nikmalarni berish shular jumlasidandir.

Ichki turizmni rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlariga qaraydigan bo'lsak, turist sifatida tashrif buyurgan sayyohning shu hududga sarf-xarajatlarini va talabga asosan taklifni shakllantirish rejasini ishlab chiqish kerak. Ichki turizm mamlakat iqtisodiyotiga katta foydasi sifatida pul massasini aylanishiga sabab bo'ladi. Pul massasini xarakatga kelishi va mamlakat ichida aylanishi. Ichki turizm xalqaro turizmdan farqli ravishda pul massasi tashqariga chiqib ketmaydi. Hududlarda turistlarga xizmat ko'rsatish uchun fuqarolr o'zlarini yig'ib qo'yan mablag'larini sarflaydilar. Bu iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.

Ichki turizm rivojlanishida mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishi ijtimoiy hayotning yaxshilanishida ijobiy ta'sir o'tkazadi. Demak ijtimoiy xayotga ta'siriga qaraydigan bo'lsak bayram va tadbirlarni tashkil etilishi bir misol bo'ladi.

Bayramlar va tadbirlarni ko'payishi. Bugungi kunda mamlakatimizda

bayramlarga alohida etibor qaratmoqda. Har bir bayram uchun hukumat tomonidan to'rt yoki besh kun dam olish kunlarini qo'shib berilmoqda. Bu ichki turizmda rivojlanishga olib keladi. Tadqiqotimiz davomida bayramlar bilan bog'liq masalalarga chuqur etibor qaratamiz.

Huquqiy tomondan ichki turizmga bo'lgan e'tibor asosiy jarayonlardan hisoblanadi. Agar hukumat tomonidan huquqiy e'tibor yoki baho berilmasa bu sohada tartib bo'lmaydi.

Siyosiy mexanizm. Siyosiy va huquqiy tomondan ichki turizmga berilayotgan e'tibor iqtisodiyotimiz rivojlanishiga kafolat desak mubolag'a bo'lmaydi. Turistning haq-xuquqlarini kafolatlovchi yoki turizmga xizmat ko'rsatadigan tadbirkorni faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi kuchlarga qarshi qonun hujjatlar borligi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishiga olib keladi.

Davlat tomonidan ichki turizmni rivojlantirishga oid maxsus qonunlarni ishlab chiqilishi ham bunga yaqqol misoldir. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 07 fevraldagi PQ-3514-son qarori "O'zbekiston bo'ylab sayyohat qil!" ichki turizmni rivojlantirish dasturini olamiz.

Jumladan yana bir misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 09 fevraldagi PF-6165-son qarori "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida ichki turizmni rivojlantirish dasturi asos bo'ladi.

Xulosa: Mahalliy turizm iqtisodiy rivojlanish, madaniyatni saqlash, madaniyatlararo almashinuv va jamoalar ichida barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish orqali u sayyohlarga ham, mahalliy aholiga ham joyning o'ziga xosligini qadrlash imkonini beradi. Biroq, potentsial muammolarni hal qilish va barcha ishtirokchilar uchun ijobiy va barqaror turizm tajribasini ta'minlash uchun ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va boshqarish zarur.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning yagona tizim sifatida uning ichki turizmdagi funksiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'lib qizmat qiladi. Ichki turizmni rivojlantirishda bu funksiyalar asosiy vazifani bajaradi. Biroq, mahalliy turizm bilan bog'liq ba'zi muammolar ham mavjud. Mashhur sayyohlik joylarida odamlarning haddan tashqari ko'pligi transport tizimlari yoki chiqindilarni boshqarish ob'ektlari kabi infratuzilma va resurslarni taranglashishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, agar turizm to'g'ri boshqarilmasa, mahalliy aholining kundalik hayotini buzishi yoki ma'lum hududlarda gentrifikatsiyaga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari.

1. Очилова, Х. Ф., Амонбоев, М., & Дехконов, Б. Р. (2020). Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии. Заметки ученого, (12), 242-247.
2. Рустамович, ДБ (2023). Качество и безопасность услуг общественного питания в Узбекистане. Европейский журнал безопасности жизни и стабильности (2660-9630) (2021/5/23) , 19-23.

MEHMONDO'STLIK SANOATINING HUDUDIIY RIVOJLANISHIDA SOLIQ HISOBINING TA'SIRI.

Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li

Qo'qon universiteti

Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası

tayanch doktoranti

E-mail: o.sh.pulatov@kokanduni.uz

Annotatsiya: Mazkur tezisda mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishiga soliq hisobining ta'siri o'rganiladi. Mehmondo'stlik sanoati — iqtisodiy tizimning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning hududiy rivojlanishi, turizm, mehmonxona xizmatlari va boshqa sohalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga oladi. Soliq siyosati va soliq tizimi ushbu sanoatning o'sishi va barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Soliq me'yorlari va soliq yengilliklari, shuningdek, mahalliy va davlat miqyosidagi soliq strategiyalari mehmondo'stlik sanoatining samarali rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonlarning tizimli tahlili orqali hududiy o'sishning ta'sirchan mexanizmlarini aniqlash, soliq siyosatini optimallashtirish va investitsiyalarni jalb etish uchun yangi yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: mehmondo'stlik sanoati, hududiy rivojlanish, soliq hisob, soliq siyosati, investitsiya, turizm, mehmonxona xizmatlari, soliq strategiyalari, iqtisodiy o'sish, soliq tizimi.

Kirish: Bugungi kunda mehmondo'stlik sanoati global iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, turizm va xizmat ko'rsatish sohaları orqali milliy va hududiy iqtisodiyotlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Mehmondo'stlik sanoati nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim manbai, balki hududiy rivojlanishni ta'minlashda ham katta rol o'ynaydi. Shuningdek, mehmondo'stlik sektorining rivojlanishi hududiy barqarorlikni oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va mahalliy infratuzilmaning yaxshilanishiga turtki beradi. Mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishi ko'plab omillar, jumladan, iqtisodiy siyosat, infratuzilma, investitsiyalar va soliq tizimiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, soliq siyosati mehmondo'stlik sanoatining samarali rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Soliq hisobining tahlili orqali, turizm va mehmondo'stlik